

ZAVQIY ASARLARINING GENETIK TARKIBI VA SEMANTIKA MUTANOSIBLIGI

Jannatxon Umaraliyeva

Qo'qon davlat pedagogika instituti magistranti O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Qo'qon adabiy muhiti vakili Ubaydullo Solih o'g'li Zavqiy she'rlarida qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasi va semantikasi xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: leksema, sema, o'z qatlam, o'zlashma qatlam, umumturkiy, arabcha, fors-tojikcha.

Аннотация. В статье представлены сведения об этимологии и семантике некоторых слов, употребленных в стихотворениях Убайдулла Салих углы Завки, представителя кокандской литературной общестственности.

Ключевые слова: лексема, сема, собственный слой, родной слой, общетюрский, арабский, персидско-таджикский.

Annotation. The article provides information on the etymology and semantics of some words used in the poems of Ubaydulla Solikh oglu Zavqi, a representative of the Kokand literary community.

Key words: lexeme, sema, own layer, native layer, all-turkish, arabic, persian-tajik.


Har bir til asosan o'z lug'at boyligi va grammatik qurilishi asosida o'z taraqqiyot qonunlari bo'yicha o'sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug'aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o'tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi.

¹

O'zbek tilining serjilo manbasidan mohirona foydalangan Zavqiy asarlarini genetik jihatdan tahlil qilinganda ham shunday rang-baranglik ko'zga tashlanadi. Qadimiy qardoshlik aloqalari sababli ijodkor asarlarida umumturkiy va fors-tojikcha so'zlar, islom dinining kengayishi natijasida kirib kelgan arabcha so'zlar, bundan tashqari, XIX asrdagi siyosiy vaziyat taqozosi bilan ommalashgan ruscha-baynalminal so'zlar Zavqiy asarlari leksikasini tashkil etadi.

¹ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

Shoirning 13 ta she'ridagi leksemalarni etimologik jihatdan o'rganilganda quyidagicha ko'rsatkich qayd etildi:



1. O'z qatlam. Ma'lumki, o'z qatlam deganda aslan shu tilniki bo'lgan leksemalar va shular asosidagi yasallishlar, shuningdek o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan yasallishlar tushuniladi.² Zavqiy she'rlarida qo'llangan so'zlarning eng katta qismini (57%) o'z qatlam tashkil etadi. Jumladan, shoir asarlarida **ot so'z turkumini** ifodalagan so'zlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) insonlar bilan bog'liq nomlar: ota, ona, o'g'il, xotin, erkak, go'dak, bola, mingboshi, yamoqchi, 2) hayvonlar bilan bog'liq nomlar: tulki, qumri, to'ti, qo'y, echki, eshak, uloq, ko'pak, chiyon (chayon), it, qarg'a, 3) somatik nomlar: og'iz, ko'ks, qo'l, yelka, soch, ko'ngil, quloq, 4) tabiat bilan bog'liq nomlar: buloq, avloq, bog', bug'doy, tikan, ko'k (osmon), boron, yulduz, 5) kiyim nomlari: kimxob, atlas, salla, 6) oziq-ovqat nomlari: suv, osh, jaz, 7) mavhum otlar: boylik, yalg'on, ochlik, o'y, o'lim, ish, murod.

O'zbek tili leksikasida o'z qatlam ikkiga bo'linadi:

- a) umumturkiy so'zlar;
- b) sof o'zbekcha so'zlar.³

Ko'p ma'nolilik umumturkiy so'zlarga xos semantik xususiyatdir. ⁴Zavqiy lirikasida bunday so'zlarni bir qancha uchratish mumkin.

Jono, jamolingni ko'rib, jononlar aytur ofarin,

² Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

³ H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.

⁴ O'sha kitob. B.183.

O'z ko'ksiga o'zi urib, yoronlar aytur, ofarin...⁵

Ko'ks oti asli qadimgi "em" ma'nosini anglatgan **kök** fe'lidan **-(o')z** qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, "tananing yelkadan qorigacha old qismi" ma'nosini bildiradi.⁶ "Devoni lug'otit turk"da bu so'z "köküz" – ko'krak, deb berilgan.⁷ Yuqoridagi baytda shoir aynan shu ma'noni ifodalagan.

Sadaflar ko'p og'iz ochmak bilan **ko'ksi** bo'lur holi,

Ki ba'zisi labin kam vo qilib durri yagon bo'ldi.⁸

Quyidagi baytda esa ko'ks so'zi orqali ko'chma "biror narsaning o'rtasi, ichi, bag'ri"⁹ ma'nosi yuzaga chiqqan va shoir husni ta'lil san'atinig go'zal namunasini yaratgan.

Vaqtini ifodalovchi leksemalar: kecha, kunduz, tun, kun, chog', tong, qish, yoz.

Taqlid va undov so'zlar: voy, oh, voh, ey, dod, g'ing-g'ing, ting-ting, g'ujur, bijir kabi.

Belgi bildiruvchi so'zlar: yalg'uz, yaxshi, yomon, och, yalong'och, buzuq, yopiq, oq, qaro, qizil, chog'.

O'z qatlamning ikkinchi (nisbatan yangi) qismini o'zbek tilining o'zida yasalgan leksemalar tashkil etadi.¹⁰ Zavqiyning "Qahatlik" she'rida qo'llangan semantik usulda hosil bo'lgan chog' leksemasini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Bu so'zdan tarjimoni to'xtagan **chog'**,

Kamitet sadrini(ng) ko'ngli bo'lib **chog'**.¹¹

Omonimlarning izohli lug'atida chog' so'zining 4 xil ma'nosi keltirilgan.¹²

Chog'. I. "vaqt", "payt", "kez". Bu ot asli **chaq** tarzida talaffuz qilingan, keyichalik **q** undoshi **g'** undoshiga almashgan **chag'**, **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: chog'.¹³

Chog'. II. Xursand, shod, yaxshi.¹⁴

Affiksatsiya usuli orqali hosil qilingan o'zbekcha so'zlar ham Zavqiy she'riyati leksikasida keng o'rin egallaydi. Yasovchi asosi arabcha leksemalar o'zbek tilining so'z yasash qoliplariga asoslangan: hisob(-siz), davo(-siz), xabar(-dor), diyonat (-li), omon (-lik), xatar (-li), sharaf (-li), qahat (-lik).

2. O'zlashma qatlam. a) arabcha o'zlashmalar. Arab tili leksikasi o'zbek tilining o'zlashgan qatlami sifatida X asrlarga kelib, butun Markaziy va O'rta Osiyo hududlari arablar tomonidan bosib olingandan keyin, yoppasiga kirib kela boshladi. Bu davrlarda arab tili faqat

⁵ Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Nashrga tayyorlovchilar: A.Turdialiyev. R.Ziyayev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. B.39.

⁶ Sh. Rahmatullayev. Etimologik lug'at. 1-jild.225-bet

⁷ Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. Toshkent: Fan, 1967.

⁸ Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Nashrga tayyorlovchilar: A.Turdialiyev. R.Ziyayev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. B.54.

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. B.454.

¹⁰ H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.

¹¹ Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Nashrga tayyorlovchilar: A.Turdialiyev. R.Ziyayev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. B.115.

¹² Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1984. B.156.

¹³ Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Turkiy so'zlar. Toshkent: Universitet, 2000. B.436.

¹⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. B.513.

arablarning o'zi uchun emas, balki barcha arab davlatlari hamda arablar tomonidan bosib olingan yerlar xalqlari uchun ham din, fan, maktab va mahkamalar tiliga aylanib qolgan edi¹⁵. Demak, arab tilidan bevosita o'zlashmalar asosan fanga va dinga doir leksemalarga to'g'ri keladi.¹⁶ Zavqiy asarlarida arabcha o'zlashmalar biz tanlab olgan g'azallarda 23% ni tashkil etadi. Ularni quyidagicha guruhlashga harakat qildik:

- 1) **shaxs nomlari:** ahhob, mashoyixlar, mudarris, qozi, yetim, asir, sulton, mahbub, ma'shuq, hokim, odam, fuqaro, mirzo, kosib;
- 2) **diniy-tasavvufiy nomlar:** rasul, sunnat, ilm, shar, bid'at, ixlos, mo'min, din, nusrat, shukr, ehson, taqvo, toat, riyo, avliyo, duo, sadr, ruh, firdavs, shayx;
- 3) **somatik nomlar:** qad, jamol, husn;
- 4) **"vaqt" semali leksemalar:** zamon, subh, ayyom, soat;
- 5) **"tabobat" semasi bilan birlashadigan leksemalar:** tabib, jarroh, tib, vabo;
- 6) **"tabiat" semali leksemalar:** sanavbar, sabo, nasim;
- 7) **"oziq-ovqat" semali leksemalar:** taom, kabob;
- 8) **"o'rin-makon" semali leksemalar:** davlat, maktab, dunyo, bino, taq, olam, do'kon, majlis, imtihon, falak, atrof;
- 9) **narsa-buyum nomini ifodalovchi leksemalar:** sadaf, dur, la'l, rishvat, hino, abyot, to'tiyo, halvo;
- 10) **mavhumlikni ifodalovchi leksemalar:** tarjima, ishora, usul, hukm, odob, xulq, xislat, niyat, ehtiyot, san'at, suhbat, xayr, hol, foyda, talab, ahd, muammo, asror, izzat, ibrat, visol, lutf, karam, tahsin, javob, naf', muruvvat, murod, vosil, ehson, ne'mat, ibrat, iloj, imdod, ahvol, mador, qasd, nomus, hayf;
- 11) **"hissiyot" semali leksemalar:** shafqat, himmat, sabr, jahd, aysh, vafo, jabr, jahd, aysh, vafo, jabr, g'am, ishq, rahm, vahm;
- 12) **belgi ifodalovchi leksemalar:** asl, muborak, sodiqona, ma'mur, om, ma'rifatlik, muhtoj, munosib, ayon, mashhur, oxir, turfa, ajab, ojiz, qodir, gazzob, g'aniy, moyil, hoziq, habs, g'arib, joyiz, mastura, sobir, hayron.

Ko'pchilik arabcha leksemalarning o'zbek tiliga o'zlashuvida fors tilining o'rni katta. Asli bunday leksemalar oldin fors tiliga o'zlashgan, keyingina o'zbek tiliga o'zlashtirilgan.¹⁷

Zavqiyga hamroz Muqimiy, O'sh kelib Mirzo Umar,

Qori Akramjong'a tanbehi mudom o'lsun oting.¹⁸

Mudom arabcha mudam(un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq **a** unlisini **o** unlisiga almashtirib qabul qilingan,¹⁹ "ma'lum muddat davom etib turdi" ma'nosini anglatuvchi

¹⁵ Hozirgi o'zbek tili. O'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: Tog'ayev T.M. Toshkent: 2016.

¹⁶ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. B.101.

¹⁷ Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

¹⁸ Zavqiy. Ajab zamona. Nashrga tayyorlovchilar: A. Madaminov, A. Turdaliyevlar. – Toshkent: Sharq, 2003. B.117.

¹⁹ Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Arab so'zlari va ular bilan hosilalar. Toshkent: Universitet, 2003. B.282.

dama fe'lining ²⁰ III bob majhul nisbat sifatdoshi bo'lib ²¹ “Арабско-русский словарь”da “vino” ma'nosini anglatishi ta'kidlangan. ²² “Персидско-русский словарь” da ²³ “vino” ma'nosidan oldin “doimo”, “uzluksiz” ma'nosini anglatishi aytilgan. “Таджикско-русский словарь” da esa ²⁴ faqat ravish ma'nosi keltirilgan. Ko'rinadiki, bu so'z o'zbek tiliga eroniy tildan ravish ma'nosi bilan olingan. ²⁵

b) fors-tojikcha so'zlar. O'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmi)ning keng tarqalganligi, tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi, Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi, adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqa omillar Zavqiy ijodida ham o'z aksini topgan. Shoir lirikasida qo'llangan fors-tojikcha so'zlar biz tahlilga olgan she'rlarda 20% ni tashkil etdi. Ularni quyidagicha semantik guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) **“shaxs” semali leksemalar:** savdogar, mehmon, jonon, shoh, do'st, mezbon, podsho, hamsoya, mirshab, mard, kisabur, gado, mullo, beva, usta, maxsido'z;
- 2) **“o'rin-joy” semali leksemalar:** xona, vayrona, go'sha, mayxona, jahon, shahar, rasta, bozor, guliston, paykal;
- 3) **narsa nomini bildirgan leksemalar:** pora, moyona, otash, dona, xarid, may, kamon, savat, dud, soya, pay, kovush, oftob, mah, garm, non, ob, meva;
- 4) **“o'simlik” semali leksemalar:** g'uncha, gul, barg, , chaman, daraxt, nargis, xok;
- 5) **“payt” semali leksemalar:** ro'z, shom, xazon;
- 6) **somatik nomlar:** dast, abr, lab, tan;
- 7) **hayvonlar bilan bog'liq nomlar:** chorva, pashsha, bulbul, zog';
- 8) **“din” semasi bilan birlashadigan leksemalar:** xudo, payg'ambar, gunoh, pari;
- 9) **mavhum otlar:** paymona, jon, nola, afg'on, pand, orzu, sud (foyda), parcha, uyat, mehr, dard, baxt, faryod, bahona;
- 10) **undov so'zlar:** afsuski, ofarin;
- 11) **belgi bildiruvchi so'zlar:** nolon, giryon, ovora, parvona, kamsuxan, nihon, rasvo, xomush, sharmanda, pinhon, bisyor, kam, yagon, xasta, oshno, pokiza, rost, boniy, notavon, nimjon, xor, andoh, behos, ogoh, bechora, behod, xom, zor, kajdor, benom.

Xulosa qilish joizki, o'zbek tilining boy manbasini genetik o'rganilgandagi rang-baranglikni Zavqiy asarlari misolida ham ko'rish mumkin. Shoir she'rlarini etimologik jihatdan tahlil etish o'zbek tilining ildizini aniqlash va boyitish uchun imkon yaratadi. Zavqiy lirikasida qo'llangan leksemalarning semantik mutanosibliigi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan

²⁰ Баранов. Х.К. Арабско-русский словарь. Изд. “Русский язык”. М.: 1976. С. 269.

²¹ Ibrohimov Ne'matullo. Yusupov Muhammad. Arab tili grammatikasi. 1- jild. O'zbek milliy ensiklopediyasi. T.: 1997. B.251.

²² Баранов. Х.К. Арабско-русский словарь. Изд. “Русский язык”. М.: 1976. С. 269.

²³ Миллер. Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.: 1953. С. 477.

²⁴ Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.: 1954. С. 236

²⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati.. M.: Rus tili, 1981.B.475.

o'rganilganda ayrim tafovutlar kuzatiladi. Shuning uchun Zavqiy asarlarining leksik-sematik jihatdan tadqiq etish bugungi tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zavqiy. She'rlar, ilmiy tadqiqot maqolalar, xotiralar. Nashrga tayyorlovchiar: A.Turdialiyev. R.Ziyayev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Zavqiy. Ajab zamona. Nashrga tayyorlovchilar: A. Madaminov, A.Turdialiyevlar. – Toshkent: Sharq, 2003.
3. Zavqiy ijodi. (Maqolalar, xotiralar, she'rlar). – Farg'ona, 2008.
4. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
5. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
6. Hozirgi o'zbek tili. O'quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi: Tog'ayev T.M. Toshkent: 2016.
7. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. Toshkent: Fan, 1967.
8. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Turkiy so'zlar. Toshkent: Universitet, 2000.
9. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Arab so'zlari va ular bilan hosilalar. Toshkent: Universitet, 2003.
10. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Fors, tojikcha so'zlar va ular bilan hosilalar. Toshkent: Universitet, 2009.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
12. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
13. Ibrohimov Ne'matullo. Yusupov Muhammad. Arab tili grammatikasi. 1-jild. O'zbek milliy ensiklopediyasi. T.: 1997.
14. Shodiyev E. O'zbek-tojik adabiy aloqalari tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Toshkent, 1973.
15. Баранов. Х.К. Арабско-русский словарь. Изд. “Русский язык”. М.: 1976.
16. Миллер. Б.В. Персидско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.: 1953.
17. Таджиско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. М.: 1954.

Ilova.

Jono, jamolingni ko'rib, jononlar aytur ofarin,
O'z ko'ksiga o'zi urib, yoronlar aytur, ofarin...

Qaddi niholingga qarab, abru kamoningga qarab,
Shoho, visolingga qarab, sultonlar aytur ofarin.

Bulbul sanga nolon o'lib, qumri ajab hayron o'lib,

To'ti ko'rib giryon o'lib, xushxonlar aytur ofarin...

Lutфу karam xonlar berur, do'st-do'stiga nonlar berur,
La'li labing jonlar berur, o'lganlar aytur ofarin.

Ishqingda ko'p ovoralar, borsun qayon bechoralar,
Husning aro parvonalar, kuyganlar aytur ofarin.

Yor kelsa mahbubing bo'lib, bir kecha ma'shuqing bo'lib,
Mezbon duogo'ying bo'lib, mehmonlar aytur ofarin.

Zavqiy qulingni dodig'a, tun kechalar faryodig'a,
Tahsin etib abyotig'a, jononlar aytur ofarin.

Turkiy so'zlar	Arabiy so'zlar	Fors-tojikcha so'zlar
Ko'ks	Jamol	Jon
Ur	Qad	Jonon
Kecha	Visol	Ofarin
Tun	Sulton	Abr
Ko'rib	Ajab	Kamon
Aytur	Hayron	Shoh
Urib	Lutf	Bulbul
Qarab	Karam	Nolon
O'lib	La'l	Giryon
Borsun	Ishq	Do'st
Kuyganlar	Husn	Non
Berur	Mahbub	Lab
Qayon	Ma'shuq	Ovora
Kelsa	Tahsin	Parvona
Bo'lib	Abyot	Mezbon
Etib		Mehmon